

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### LOGOPEDIYADA AMALIY METODLAR, MASHQLAR, ÒYIN VA MODELLASHTIRISH.

*Hamidova Sarvinoz*

*Abdulla Qodiriy nomidagi*

*Jizzax davlat Pedagogika universiteti,*

*Pedagogika va Psixologiya fakulteti,*

*Logopediya Yònalishi*

*510-23-guruh 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada logopediyada qo'llaniladigan amaliy metodlar, mashqlar, o'yin texnologiyalari va modellashtirish usullari yoritilgan. Nutq nuqsonlarini tuzatishda va bolalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishda foydalaniladigan zamonaviy va an'anaviy yondashuvlar ko'rib chiqilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны практические методы, упражнения, игровые технологии и методы моделирования, используемые в логопедической работе. Рассмотрены современные и традиционные подходы, используемые при коррекции дефектов речи и формировании речевых навыков у детей.

**Abstract:** This article describes practical methods, exercises, game technologies and modeling methods used in speech therapy. Modern and traditional approaches used in the correction of speech defects and formation of speech skills in children are considered.

**Kalit so'zlar:** Logopediya, amaliy metodlar, nutq nuqsonlari, o'yin usullari, modellashtirish, mashqlar, bolalarning talaffuzni tuzatish, pedagogik yondashuv.

**Ключевые слова:** Логопедия, практические методы, дефекты речи, игровые методы, моделирование, упражнения, коррекция произношения детей, педагогический подход.

**Key words:** Speech therapy, practical methods, speech defects, game methods, modeling, exercises, children's pronunciation correction, pedagogical approach.

### KIRISH

Logopediya bu nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, ularni tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fan hisoblanadi. Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika fani sirasiga qo'shadi. "Logopediya" termini grekcha logos (so'z, nutq), peydeo (tarbiyalayman, o'qitaman) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimada to'g'ri "nutqni tarbiyalash" ma'nosini bildiradi. Nutqiy kamchiliklarni korreksiyalash, yetakchi faoliyatni hisobga olish bilan birgalikda olib boriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati, motorika, sensor soha, lug'at boyligi, til qonuniyatlarini egallash bola shaxsini shakllantirish jarayonida olib boriladi. Turli xil nutqiy kamchiliklarni bartaraf etishda logopedik ta'sirning asosiy shakllari hisoblanib, ta'lim-tarbiya, korreksiya, kompensatsiya, adaptatsiya, reabilitatsiya hisoblanadi. Logopedik ta'sir turli xil metodlar va usullar yordamida amalga

oshiriladi. Ta'lim metodlarining turli xil tasniflari bor. Logopediyada amaliy, ko'rgazmali va og'zaki metodlardan foydalaniladi, u yoki bu metodni qo'llash nutqiy nuqson xususiyati bilan belgilanadi. Logopediyada bolalarning nutqini korreksiyalash uchun turli xil metodlardan foydalanish mumkin. Metod òzi nima degan savolga javob beramiz. Metod (yunonchadan olingan bo'lib, 'metodos' - bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli hisoblanadi. Logopediyada amaliy metodlarga mashqlar, o'yin va modellashtirish kabilari kiradi. Logopediyada bolalarning nutqini korreksiyalash muhim ahamiyatga ega, hozirgi kunda bolalarning nutqini korreksiyalashda turli xil òyinlar va metodlardan foydalanish samaralidir. Mashqlar - bu berilgan amaliy va aqliy harakatlarning ma'lum ketmaketlikda bola tomonidan takrorlanishi hisoblanadi. Artikulatsiya va ovoz kamchiliklarini bartaraf etishda bunday mashqlar ishning samaradorligini va foydaliligini oshirishga yordam beradi. Artikulatsion mashqlarni doimiy ravishda bajarib turish, tovushni nutqqa qòyish va to'g'ri talaffuz etish uchun zamin yaratadi. Logopediyada bolalarning qòl matorikalarini shakllantiradigan mashqlar ham bor. Mashqlar taqlidiy-bajariluvchi, konstruktiv va ijodiy turlarga bo'linadi. Taqlidiy-bajariluvchi mashqlar bolalar tomonidan namuna asosida bajariladi. Logopedik ishda asosiy o'rinni amaliy xarakterdagi mashqlar egallaydi (ovoz, nafas, artikulatsiya, umumiy va mayda kul motorikasini rivojlantiruvchi). Boshlang'ich bosqichlarda harakatlar ko'rgazmalilik asosida olib boriladi. Logopedik ish jarayonida turli xildagi konstruktiv turlaridan ham foydalanadi. Masalan, optik disgrafiyaning bartaraf etishda bolalar harf qismlaridan butun harflarni yasaydilar. Ijodiy harakatdagi mashqlarda ilgari egallangan usullarni yangi sharoit va yangi nutqiy jarayonlarda qo'llay bilish tushuniladi. Masalan, tovushlar tahlili va so'zdagi ketma-ketligini egallashda bolalar turli xil yordamchi vositalardan foydalanadilar, keyinchalik bu mashqlar og'zaki shaklda bajariladi. 1. Mayda yordam motorikasini tizimli va mustahkamlash ishlari: -bolaning tafakkurini rivojlantiradigan mashg'ulotlar; -koptok bilan òyinlar; 2. Logopedik massaj: -zondli; -o'z-o'zini massaj qilish; 3. Artikulyatsion mashqlar: O'yin metodi o'yin faoliyatini boshqa usullar, ya'ni namoyish qilish, tushuntirish, savollar bilan birgalikda olib borishni nazarda tutadi va amal qiladi. O'yin metodida asosiy, yetakchi rolni tarbiyachi o'ynaydi, korreksion ishlarni vazifalari va bosqichlariga mos keladigan o'yin turini tanlaydi, rollarni bo'lib beradi va bolalarning faoliyatini faollashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan turli xil o'yinlar olib boriladi: masalan, ashulali, didaktik, harakatli, ijodiy, sahnalashtirilgan va boshqa òyinlar olib boriladi. Ularning qay tariqa qo'llanishi, korreksion ishning vazifalari va bosqichi, nutqiy nuqson tuzilishi, bolalarning yosh va individual-ruhiy xususiyatlari bilan belgilanadi. An'anaviy òyinlar ham katta yordam beradi.

An'anaviy o'yinlardan tashqari:

- koptoklar (kauchukli, paxtali, uchli, gadur-budur, tòda);
- plastmassadan ishlagan o'yinchoqlar;
- juft ranglar barmoqlar uchun «juft etikchalar» kabi o'yinlar;
- barmoqlar massaji uchun nòxot, mosh, loviya kabilardan foydalanish;

Modellashtirish bu modellarni yaratish, qo'llash va obyektlarning tuzilishi haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga mo'ljallangan jarayon hisoblanadi. Ulardan samarali foydalanish quyidagi sharoitlarga bog'liq:

-model obyektning xususiyatlarini aks ettiruvchi bo'lishi kerak;

-ma'lum yoshdagi bolaning idrok qilishi uchun mos bo'lishi kerak;

-bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonini yengillashtirishi zarur. Modellardan samarali foydalanish ma'lum darajada aqliy operatsiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi (analiz, sintez, mavhumlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash).

Modellar turlari:

- Vizual modellar: Rasmlar, diagrammalar, grafiklar yoki videolar;
- Interaktiv modellar: Kompyuter o'yinlari va mashg'ulotlar;
- Fizikaviy modellar: Artikulyatsion organlarning maketlari yoki qurilmalari;
- Simulyatsiyalar;

Nutq jarayonlarini taqlid qiluvchi dasturlar. Logopediyada modellashtirishning afzalliklari: - bolalarda mavhum tushunchalarni tushunish osonlashadi. -nutq apparati ishlashini o'rganishda aniq tasavvurlar shakllantiriladi. -bolalar o'rganishni qiziqarli va samarali deb qabul qiladi. -diagnostika va terapiya jarayonlari tizimlashtiriladi. Modellashtirishning to'g'ri tashkil etilishi logopedik jarayonning muvaffaqiyatli bo'lishiga katta hissa qo'shadi. Xulosa. Logopediyada amaliy metodlar, mashqlar, o'yin va modellashtirish usullari bir-birini to'ldiradi va nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullarni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash bolalarda nafaqat nutqni yaxshilashda, balki ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashuviga ham yordam beradi. Logoped va pedagoglarning ijodkorligi va tajribasi bu jarayonlarning muvaffaqiyatini belgilaydi. Har bir logoped nutqida nuqsoni bor bolalar bilan qiziqarli va samarali mashg'ulotlarni o'tishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M. «Logopediya» darslik T.: O'zFMJN 2007.
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/pedagogikpsixologiya/logopediyaning-metodologik-asoslari>.
3. <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/01/Logopediya-kompleksmashqlar.pdf>.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
5. <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/download/1670/1631>

hamidovasarvinoz209@gmail.com